

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шнукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масъул қотиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

**Мўминова Маъсума Ғолиб қизи**  
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джўраев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Балтабаев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Шнукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Ўзбекистан)

**Муминова Масума Ғолиб қизи**  
PhD и.о. доцент

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarchodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammadov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

**Mo'minova Ma'suma**  
PhD Acting Docent  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Tursunova Parvina Mamurjonovna</b> NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
<b>2. Умурова Гузал Хотамовна</b> ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
<b>3. Даминова Фазода Ирисовна</b> ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
<b>4. Рахматова Гулнора Турсиновна</b> ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
<b>5. Усманова Салиха Юлдашевна</b> ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
<b>6. Ибаев Анвар Журабекович</b> ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
<b>7. Т.А.Эргашева</b> СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
<b>8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich</b> ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
<b>9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna</b> RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
<b>10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna</b> PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
<b>11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich</b> ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
<b>12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi</b> ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
<b>13. Aybibi ISKANDAROVA</b> O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK ANAMIYATI.....	87
<b>14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna</b> THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	93
<b>15. Воҳидов Абдувахоб</b> САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
<b>16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна</b> ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

<b>17. Zaynutdinova Durdona Asatovna</b> ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
<b>18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi</b> THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
<b>19. Ochilova Noila Farmonovna</b> O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
<b>20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi</b> BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI ( ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
<b>21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li</b> AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
<b>22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna</b> AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
<b>23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova</b> SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
<b>24. N.M.Shamuradova</b> INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
<b>25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva</b> ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
<b>26. Башарова Лейла</b> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
<b>27. Ivanova Alena Yadmagieвна</b> TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
<b>28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi</b> O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
<b>29. Asqar Abdullaev</b> SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
<b>30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna</b> FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
<b>31. Сабина Авазжоновна Махмудова</b> ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
<b>32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich</b> RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Nuraliyeva Ozoda Narbayevna**

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

**FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYYATI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20815053>**ANNOTATSIYA**

Folklor insoniyatning qadimiy tafakkur shakllarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Unda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos badiiy va ramziy shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, iqlim hodisalari folklor matnlarida nafaqat tabiiy jarayon sifatida, balki chuqur ma'naviy, mifologik va estetik ma'nolarni o'zida mujassam etgan ramz sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda mazkur maqolada folklor janrlarida klimatologik birliklar va ularning ramziy jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ingliz, rus va o'zbek she'riyatida tabiat hodisalari bilan bog'liq birliklar va ularning voqelanishi, majoziy yukni o'zida mujassamlashtirishi inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi asosiy omil sifatida qaralishi tahlillarda o'z ifodasini topgan. Berilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, xalq og'zaki ijodidan joy olgan mavsumiy marosimlar folklorida ham klimatologik elementlarga boy bo'lgan ijod aks etganligi asoslanilgan.

**Kalit so'zlar:** lirika, badiiy ong, milliy ruh, folklor, mintalitet, klimatologiya, tabiat va inson, ramziylik, dunyoqarash, mavsumiy marosimlar.

**Nuraliyeva Ozoda Narbayevna**

Researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages

**THE SYMBOLIC AESTHETICS OF CLIMATIC PHENOMENA IN FOLKLORE TEXTS****ABSTRACT**

Folklore is an important source that reflects the ancient forms of human thought. It expresses the relationship between nature and humans in a unique artistic and symbolic way. In particular, climatic phenomena in folklore texts appear not only as natural processes but also as symbols embodying deep spiritual, mythological, and aesthetic meanings. In this regard, the present article provides information about climatological units in folklore genres and their symbolic aspects. The analysis highlights how elements related to natural phenomena in English, Russian, and Uzbek poetry manifest themselves and carry metaphorical meanings, serving as key factors in defining the balance between humans and nature. The study also demonstrates that seasonal ritual folklore, which forms part of oral folk creativity, is rich in climatological elements.

**Keywords:** lyric poetry, artistic consciousness, national spirit, folklore, mentality, climatology, nature and human, symbolism, worldview, seasonal rituals.

**Нуралиева Озода Нарбаевна**Исследователь Самаркандского государственного  
института иностранных языков

## СИМВОЛИЧЕСКАЯ ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ КЛИМАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ В ФОЛЬКЛОРНЫХ ТЕКСТАХ

### АННОТАЦИЯ

Фольклор является важным источником, отражающим древние формы человеческого мышления. В нём взаимоотношения человека и природы выражаются в своеобразной художественной и символической форме. В частности, климатические явления в фольклорных текстах выступают не только как природные процессы, но и как символы, воплощающие глубокие духовные, мифологические и эстетические смыслы. В этой связи в данной статье представлены сведения о климатологических единицах в жанрах фольклора и их символических аспектах. В ходе анализа показано, что элементы, связанные с природными явлениями в английской, русской и узбекской поэзии, проявляясь и неся в себе образно-метафорическую нагрузку, рассматриваются как важный фактор, определяющий баланс между человеком и природой. Также обосновывается, что в сезонно-обрядовом фольклоре, являющемся частью устного народного творчества, широко представлены произведения, богатые климатологическими элементами.

**Ключевые слова:** лирика, художественное сознание, национальный дух, фольклор, менталитет, климатология, природа и человек, символизм, мировоззрение, сезонные обряды.

Folklor – xalqning dunyoqarashi va uning tabiat bilan munosabatini aks ettiruvchi birlamchi manbadir. Iqlim hodisalari qadimiy inson uchun shunchaki tabiiy jarayon emas, balki ilohiy iroda yoki g‘ayritabiiy kuchlarning namoyon bo‘lishi hisoblangan. Bugungi ekologik inqiroz davrida folklor matnlaridagi iqlimiy ramzlarni o‘rganish inson va tabiat o‘rtasidagi buzilgan muvozanatni qayta anglashga yordam beradi.

“Folklorshunoslikka kirish” o‘quv qo‘llanmasida – xalqning til boyligi birinchi navbatda uning folklorida namoyon bo‘ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o‘rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi – deyiladi. [7,8] Demak, folklor xalqning tilini belgilab beribgina qolmay, uni o‘ziga xos tarovatini ko‘rsatuvchi manba sanaladi.

Xalq og‘zaki ijodidan joy olgan mavsumiy marosimlar folklorida ham klimatologik elementlarga boy bo‘lgan ijod aks etgan. O.Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darsligida bu kabi folklorlarni bir qancha turlarga ajratib ko‘rsatadi:

1. Bahorgi mavsumga aloqador marosimlar;
2. Yozgi mavsumga aloqador marosimlar;
3. Kuzgi mavsumga aloqador marosimlar;
4. Qishki marosimga aloqador marosimlar. [8,128]

Bu kabi turlarga ajratish rus va ingliz folklorida ham uchraydi. [1,287] Chunki, mavsum bilan bog‘liq qarashlar va janrlar aynan shunday turlarga ajratishni taqozo etadi.

Jahon xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa uning janrlarida klimatologik hodisalar, ularning elementlari tasvir etilgan bo‘lib, bu davr adabiyotida ham mazkur mazmun salmoqli o‘rin tutganligi kuzatiladi. Misr ehromlariga nazar tashlansa, unda ham xalq og‘zaki ijodidan o‘rin olgan she‘riy parchalarga duch kelish mumkin. Bu kabi parchalarda Misrning klimatologik holati, geografik yondashuvi borasida so‘z yuritiladi. Bu haqda adabiyotshunoslar H.Boltaboyev hamda M.Mahmudovlar quyidagi fikrlarni berib o‘tadilar: “She‘riyatda Nil daryosi butun Misr xalqiga rizqu-ro‘z beruvchi, dala va bog‘larni yashnatuvchi vallomat, saxovatli Tanfidek muqaddas deb, unga madhiya, qasidalar kuylanadi”. [5,25] Yuqoridagi parchaga nazar tashlansa, unda nafaqat xalq og‘zaki ijodidagi ongli, estetik tafakkur balki mifologik tafakkur ham zuhur topgan. Biroq xalq og‘zaki ijodida klimatologik elementlar badiiy obraz yaratishning muhim vositasi sanaladi. Bu kabi ko‘rinishni ramziy funksiyaning poetik ifodasi deb qarash to‘g‘riroq bo‘ladi. Folklor matnlarida iqlim hodisalari badiiy obraz bo‘lishi bilan birga emotsional fon sifatida ham kuzatiladi:

*Ikki bulbul sayroshadi, tog‘u cho‘llarda yurib,  
Chaqnasa suvlar ichodi, bog‘u bo‘stonga kelib.*

*Suv tinig'i bunda qoldi, borib ichdi loyini,  
Bosh eson bo'lsa ko'ramiz, sevib olgan yorini.*

*Oqmidi bilaklarim, ko'pmidi tilaklarim,  
Yetti qat yer ostida chiridi suyaklarim. [10,14]*

Mazkur parchada tog' u cho'llar emotsional fon bo'lib, u faqat lirik qahramonning chuqur qayg'usining darajasini ifodalashga xizmat qilgan. Demak, iqlimiy ottenkalar fon vazifasini o'tab, qahramonning ruhiyatini ochishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, emotsional holat yetti qat yer ostida ham joy olganligi va uning o'limi bilan bog'liq tushunchalarga zamin yaratganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lirik qahramon hayot va o'lim tushunchalarini yorning vasli bilan bog'laydi. Bu ruhiy kechinma talqinida xronotop yorning ruhiy makoni va lirik fonni yuzaga keltiradi. Quyidagi folklor namunasida ham iqlimiy tushunchalar lirik qo'shiqda fon vazifasini bajaradi:

*Bu tog'lar, qanday tog'lar,  
Toshi bor tepasi yo'q.  
Va'dasida turmagan yorning  
Dardi bor da'vosi yo'q.*

Ushbu o'zbek xalq qo'shig'idan olingan lirik parcha o'zining ixchamligi bilan birga, juda teran semantik qatlamlarga ega hisoblanib, iqlimiy-landshaft proektsiyasi sifatida talqin etish mumkin. Mazkur parchada tog' xronotopi joy olgan bo'lib, u ochiq makon sifatida e'tirof etilgan. M.Baxtinga ko'ra tog' nafaqat geografik obyekt, balki lirik qahramonning ruhiy holati aks etgan vertikal makondir. Qo'shiq matnida "Toshi bor, tepasi yo'q" tushunchasi mavjud bo'lib, u xronotopning "cheksizlik" va "mantiqsizlik" elementini ko'rsatadi. Odatda tog'ning cho'qqisi (tepas) maqsad yoki yechim ramzi sanaladi. Tepasining yo'qligi esa vaqtning to'xtab qolganini, lirik qahramonning kutish va umidsizlik "aylanasi" ichida qolganini bildiradi. Bu kabi xususiyat statik xronotopni yuzaga keltiradi. Umuman olganda, matnda tog' ochiq kenglik bo'lsa, "da'vosi yo'q"ligi uni ruhiy qafasga aylantiradi. Fondagi tog' hamda detaldagi tosh statik iqlim sari yetaklaydi. Shu bilan bir qatorda tepasizlik bulut biln berkinganlik hamda quyosh tushmaydigan joy tushunchasini ham anglatadi. Demak, tog' tepasi tasviri iqlimning "unumsiz" holatiga ishora qiladi. O'zbek folklorida unumdor tog'lar yaylovlar va suvlar bilan tavsiflanadi. Bu yerda esa faqat "tosh" borligi hamda iqlimdagi salbiy ottenka va insoniy munosabatlardagi "sovuqlik" (va'dasida turmaslik) o'rtasidagi simmetriyani yuzag keltiradi. Matnda tog' va tosh sovuqlik ramzi bo'libgina qolmay, yorning va'dasida turmasligi natijasida paydo bo'lgan dardning og'ir va yemirib bo'lmas kuchga aylantirgan.

Lirik qahramonga murojaat etadigan bo'lsak, u o'z dardi bilan tabiatga yuzlashadi. Shu bois ham tog' ayni o'rinda muloqot obyektiga aylanadi. Lirik qahramonning "Bu tog'lar, qanday tog'lar" deb murojaat qilishi fikrimizni isbotlaydi. Shu o'rinda tabiat lirik qahramonning dardiga "aks-sado" (echo) bermaydigan, sust va befarq muhit sifatida gavdalanadi. Tog'da yechim yo'qligi ishqi munosabatlarning inqirozini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, mazkur matnda tog', bizningcha tushkunlik va sadoqat sinovi maydoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Tog' lanshaftining deformatsiyasi, ijtimoiy-axloqiy normaning buzilishi, tabiatning anomal holati insoniy tuyg'u hisoblanmish xiyonatning badiiy aksi sifatida tasvir etilgan.

Quyidagi rus folklor qo'shig'ida ham tabiat hodisasi, uning tarovati va tasviri fon vazifasini o'taydi:

*Ой, по морю, морю синему,  
По синему, по волнистому,  
Плыла лебедь, лебедь белая.  
По морю-морю, по морю синему,  
Морю Хвалынскому  
Плавала лебедь белая,  
Лебедь залетная*

Mazkur matnga nazar tashlansa, unda rus folklorining qadimiy ramzlari bilan bog'langan tushunchalar zuhur topadi. Matnda bevosita suv stixiyasi ifoda etilgan bo'lib, rus folklorida "Синяя моря" (ko'k dengiz) shunchaki geografik obyekt emas, balki dunyoning chegarasi, olamning boshi

va oxiri hisoblangan. Xvalinsk dengiziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u xronotop vazifasini o'tab, Kaspiy dengizining qadimiy nomidir. Folklor matnida u "cheksizlik" va "buyuklik" ramzi sifatida tasvir etilgan. Oq qush (Лебедь белая) obrazi nafaqat qush, balki ayol ramzi sifatida matndan joy olgan. Ba'zan esa mazkur matnda "Dengiz malikasi" yoki inson ruhining timsoli deya anglashimiz ham mumkin. Uning "ko'k dengiz" uzra suzishi esa hayot yo'li yoki dunyo ummonidagi poklikning ramziy tasviri bo'lib xizmat qilgan. Mazkur folklor namunasida ranglar simvolikasi ham o'rin egallaganki, bu simvolikani ikki qarama-qarshi oppozitsiya asosida talqin qilish mumkin. Birinchisi, ko'k (синий) beroyonlik, cheksizlik ba'zan xafli hudud tushunchalari bilan bog'lansa, oq (белая) poklik, muqaddaslik, yorug'lik tushunchalarini mazmunga singdirib yuborilgan. Umuman olganda, Oq qushning ko'k dengizda suzishi yorug'likka, kelajakka ishonch tushunchalari tajassum etadi. Mazkur matndagi asosiy iqlimiy element sifatida suv va shamol (to'lqin) munosabati hisoblanadi. Bu munosabat, go'yo inson hayoti va uning kelajagi bir tekis, ravon yo'ldan iborat emasdek. Unga past-balandliklar, talotumlar o'zida mujassamlashgan. Shu bilan bir qatorda, matnda "По волнистому" (to'lqinli) tushunchasi o'rin egallaganki, u o'zida iqlimiy dinamikani ifoda eta olgan. Bu dinamika esa dengiz tinch emas, u harakatda holatini anglatib, inson taqdiridagi "bo'ronlar" va o'zgaruvchan iqlim sharoitlarini bildiradi. "Залётная" (uchib kelgan, musofir) termini qushning ushbu hududga xos emasligini, iqlimiy migratsiya yoki kutilmagan tashrifni anglatadi. Matnga nazar tashlansa, unda rus xalq she'riyatiga xos bo'lgan parallelizm va takror (repetitsiya) asosiga qurilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Mantdan joy olgan ko'k dengiz, oq qush kabi epitetlar esa xalq xotirasining ideal tabiat manzarasini yaratishga xizmat qilgan. Qo'shiqda asosiy belgi sanalgan takror ham uchraydiki, bu takror: "По морю, морю" matnda ritmli takror vazifasini o'tab, dengiz to'lqinlarining urilishini imitatsiya qiladi.

Folklorshunos M.A.Vengranovich o'zining "Folklor matni: lingvostilistik xususiyatlarning shartlanganligi muammolari" maqolasida mazkur qo'shiqqa ahamiyat qaratib, undagi oq qushning ramziy obrazini an'anaviy qiz obrazi sifatida e'tirof etadi. Bu ramziy obraz turli "syujetlar"ga nisbatan erkin birikish imkoniyatiga ega bo'lib, turlicha talqin qilinadi. [6, 22] G.I.Maltsev esa bu ramziy obrazni "hissiy kayfiyatni sozlash" sifatida (A.N. Veselovskiy), qo'shiqchining tasviriylikka va emotsional ifodaviylikka intilishi sifatida, shuningdek, qo'shiqning keyingi mazmuni uchun an'anaviy kontekstni yaratuvchi va ushbu matnni an'anaviy ma'nolar majmuasiga kirituvchi matn konstantasi sifatida izohlaydi. [12,19] Demak, bu ramziy obraz oddiy, odatiy obraz emas, u emotsional holatni va kayfiyatni ko'rsatuvchi ramz timsolidir.

Folklorshunos O.Safarov tong shamoli bilan bog'liq qo'shiqqa murojaat etar ekan, undagi samimiylik va sof qalb tuyg'usini contrast holatda qo'yilganligini ta'kidlab, bu ajoyib istak, yorning visoli borasidagi qarashlarni keltirib chiqarganligini berib o'tadi:

*Tong shamoli yorning  
Yuzlaridan o'tgan silab.  
Ko'pdan-ko'p salom degin,  
Tinchlik, omonlik tilab.*

Tong shamoli g'oyat yoqimli va samimiy an'anaviy poetik obraz. Binobarin u orqali yorga yo'llangan istakda ham shunday samimiyat bor. [8,79] Bizningcha, ushbu to'rtlik o'zbek lirik folklorining eng nafis namunalaridan biridir. Unda antropomorfizm (tabiatga insoniy xususiyatlar berish), ekologik parallelizm va mifologik qatlamlarga duch kelish mumkin. Matndagi "Shamol" havo stixiyasining kommunikativ funksiyasini ochib beradi. O'zbek va Sharq xalqlari mifologiyasida "Tong shamoli" (Sabot) shunchaki iqlimiy hodisa emas, balki ikki olamni yoki ikki qalbni bog'lovchi muqaddas elchidir. Mazkur matnda ham shamol aynan mana shu vazifani ado etadi. Shu bois ham uni biz bemalol qalb elchisi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Qadimiy tasavvurlarga ko'ra, shamol ruhlar va nafslarning tashuvchisi hisoblangan. Ushbu matnda shamol lirik qahramon va yor o'rtasidagi masofani yo'qotuvchi yagona vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning mayin lirizmga yo'g'rilganligini shamolning tinchlik va omonlik tilab "silab o'tishi"da anglash mumkin. Demak, tabiatning bu holati agressiv emas, balki marhamatli va shifobaxsh (evristik) kuch ekanligini ko'rsatadi.

Matnda iqlimiy hodisaning (shamolning) vaqt va makon bilan bog‘liqligi juda muhim. Tong nafaqat vaqt tushunchasini ayonlashtiradi, balki yangilanishni, poklikni ham ko‘rsatib, umid pallasini belgilaydi. Chunki tonggi havo eng musaffo va harakatlanuvchan bo‘ladi. Bu vaqtda shamolning esishi “uyg‘onish” metaforasidir. Yana e‘tiborli jihati taktil (sizish) hissini berib ketganligi bilan ham belgilanadi. Chunki “yuzlaridan o‘tgan silab” tushunchasida iqlimiy hodisa inson tanasi bilan bevosita jismoniy aloqaga kirishadi. Tabiat bu yerda shunchaki manzara (dekoratsiya) emas, balki lirik qahramonning qo‘li yetmagan joyga yetib boruvchi “jonli subyekt”dir. Mazkur matnda lirik qahramonning ichki sog‘inchi shamolning tashqi harakati bilan parallel ravishda berilgan. Shamolning yo‘nalishi (lirik qahramondan yorga qarab) she‘rning emotsional holatini ham belgilaydi. “S” harfining takrorlanishi, ya‘ni alliteratsiya (shamoli, silab, salom) shamolning shivirlashi va muloyim harakatini yuzaga keltirgan.

Klimatologik elementlarning ko‘rinishlari yil fasllari bilan ham bog‘lanib, u xalq og‘zaki ijodining lirik qo‘shiqlarida detal vazifasini ham o‘taydi. Fikrimizga misol:

*Olma guli – gul emas,  
Taqsam chekkamda turmas.  
O‘zganing yori – yor emas,  
Bir pas yonimda turmas. [8,128]*

Mazkur lirik parchada bahor fasli borasidagi qarashlar zuhur topgan bo‘lib, unda olmaning gullashi aprel oyi (xronotopi) bilan bog‘liq. Olma guli yaproqlari tezda so‘nishi natijasida uni gul sifatida ifoda etilmaydi. Shu bois ham lirik qahramon (bu o‘rinda lirik qahramon ayol kishi) olma guliga husnu latofatini ishona olmaydi, shu bilan bir qatorda bu gulni o‘zganing yori sifatida ham talqin qiladi. Natijada, olma guli unga gul sifatida yarashmagandek, o‘zganing yori ham unga yor bo‘la olmaydi kabi tushunchalarga yo‘l ochadi. Yuqorida ta‘kid etganimizdek, mazkur lirik parchada olma guli faqat personifikatsiyaning ruhiy holatini ochish uchun xizmat qilib, unda detal vazifasini o‘tagan. O.Safarov to‘g‘ri ta‘kidlagandek, xalq e‘tiqodida olma chuqur iz qoldiradigan nafaqat meva shaklida, hatto olmaning atributlari sanaluvchi “guli va bargi” singari detallari orqali ham rang-barang poetik ma‘nolarni ifodalovchi ramziy obrazlar yaratgan.

Iqlim holatini tasvir etuvchi detallardan yana biri “Qaldirg‘och” deb nomlangan qo‘shiqda joy olgan bo‘lib, unda yopiq tushuncha orqali ifoda etiladi:

*Qaldirg‘och,  
Qanoting yetti quloch.  
Borasan,  
Kelasan.  
Semurg‘ momam soqqinami?  
Ko‘zlari beriroqqinami? [11,18]*

Mazkur o‘rinda klimatologik tushuncha afsonaga asoslangan bo‘lib, qaldirg‘och qishda semurg‘ qanoti tagiga yashirilib, o‘zini sovuqdan saqlaydi. Shu sababdan bolalar folklorida bolalar bir-biridan semurg‘ning sog‘ligi va ko‘zi yaxshi bo‘lib qoldimi deb so‘rashadi. Mazkur o‘rinda yopiq klimatologik hodisani qanot detali asosidagi ifodasiga duch kelamiz. Asosiysi, sodda sintaksis, qisqa misralar asosida yaratilganligi, uni og‘zaki nutqqa xos ohangini keltirib chiqaradi. Bu o‘rinda qaldirg‘och obrazi bahor va yangilanish haqida xushxabar keltiruvchi qush vazifasida ado etadi. Qo‘shiqdagi “yetti quloch” metaforasiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Chunki bu metafora mubolag‘ali metafora sanalib (hiperbola), u qushning kuchi va imkoniyatlarini oshirib ko‘rsatadi. Bundan tashqari yetti sonining o‘zi sokral (muqaddas) raqam bo‘lib, mifologik tushunchalarni qamrab oladi. Demak, mazkur bolalar qo‘shig‘i ko‘rinishi, tuzilishi jihatidan sodda bo‘lsa-da, uning mazmunidagi tushunchalar murakkablikni hosil etadi. Bu esa xalq qo‘shig‘ining estetik quvvatini oshishiga xizmat qiladi.

Bolalar folklorida yoz fasli bilan bog‘liq qo‘shiqlar uchraydiki, bu qo‘shiqlar o‘z navbatida tabiatning almashinuvini ko‘rsatib, fasllarga bo‘lgan estetik munosabatni ham anglatadi:

*Laylak keldi, soz,  
Qanoti qog‘oz.  
Biz tarafda ham*

*Bo‘lar endi yoz.*

*Laylak kelsa soz,  
Boshlanadi yoz.  
Soyda cho‘milsak,  
Bizga qanday soz! [11, 24]*

“Laylak keldi...” qo‘shig‘i mavsumiy qo‘shiq bo‘lib, bu o‘rinda klimatalogik hodisa ijobiy otenkaga egadir. Shu bois ham undan rohat olayotgan bolalarning jo‘shqin ruhiyati qo‘shiqqa ishorali ifodasiga ega. Bu parchada voqeabandlik emas, balki lirik qahramonning kayfiyati birinchi planga chiqqan. Shu bois ham uni mavsumiy qo‘shiq deya e‘tirof etib, lirik qo‘shiqlar sirasiga kiritish mumkin.

Ingliz folklorida ham yoz iqlimini ifoda etgan folklor qo‘shiqlari mavjud bo‘lib, bu qo‘shiqlarda ham jo‘shqin kayfiyat ustunlik qiladi:

*Summer is a-coming in  
Loudly sing cuckoo,  
Groweth seed an bloweth mead  
And spring'th the wood a-new.  
Sing cuckoo, sing cuckoo.  
Merry sing cuckoo  
O the cuckoo she's a pretty bird  
She singeth as she flies;  
She bringeth good tidings,  
She telleth no lies.  
She sucketh white flowers  
For to keep her voice clear;  
And the more she singeth "Cuckoo"  
The summer draweth near.  
Ah..*

(Qo‘shiq matnining erkin tarjimasini (tarjima o‘zimizniki): *Yoz ham kelib qoldi-ya, // Sayra baland, ey kakku! // Urug‘ unib, qir gullar, // O‘rmon kiyar yangi ko‘z. // Sayra kakku, sayra sen, // Shodon sayra, ey kakku! // Kakku go‘zal qush erur, // Uchar ekan sayraydi. // U xushxabar keltirar, // Yolg‘on nima – bilmaydi. // Ovozi tiniq bo‘lsin deb, // Oq gullar bolin ichar. U qancha ko‘p sayrasa, // Yoz shuncha yaqin kochar. Oh...*)

“Summer is a-coming in and the Cuckoo” (Yoz kelmoqda) deb nomlangan mazkur qo‘shiq XVI-XVII asrlarda xalq tomonidan yaratilgan. U mavsumiy qo‘shiq bo‘lib, seaonal song janriga mansub. Folklor matnlar orasida bahor va yoz mavsumi bilan bog‘liq bo‘lib, tabiatning uyg‘onishi va dehqonchilikni ifoda etuvchi qo‘shiqlar sirasiga kiradi. Qo‘shiqning matnidan yozgi mavsumning yaqinlashishi qushlar va tabiat hodisalari orqali tasvirlanadi. “*Groweth seed an bloweth mead / And spring'th the wood a-new*” misralarida don sifatida taqdim etilgan urug‘larning o‘sishi va o‘rmonlarning yangilanishini ko‘rsatadi. Qo‘shiqdagi *cuckoo* (kakku qushi) yozning kelishini e‘lon qiluvchi ramz sifatida ishlatilgan. Bu folklor arxetipi bo‘lib, qushlar ko‘pincha tabiat sikllari (tabiat xabarchisi) va vaqt o‘tishini bildiruvchi belgilar sifatida keladi. Bu kabi qarashlar nafaqat ingliz balki, yuqorida ta‘kid etganimizdek, o‘zbek va rus folklorida ham uchraydi. Umuman olganda qo‘shiqdagi “*Sing cuckoo, sing cuckoo / Merry sing cuckoo*” kabi takroriy frazalar qo‘shiqning ritmik va melodik xarakterini ta‘minlaydi. Takrorlar folklorida yodlash va og‘zaki ijroni osonlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa qo‘shiq matning asosiy xususiyati sifatida ifoda etiladi. Bundan tashqari misralar tarkibida alliteratsiya va assonans hodisasi mavjud bo‘lib, u: “*She sucketh white flowers / For to keep her voice clear,*” qo‘shiqning melodik ohangini mustahkamlaydi.

Cuckoo qushi (kakku) “*She bringeth good tidings, She telleth no lies*” satrlarida xabar yetkazuvchi, rostgo‘y mavjudot sifatida tasvirlangan. Bu kabi holatni folkloriy animizm va personifikatsiya elementi sifatida e‘tirof etishimiz mumkin. Umuman olganda, mazkur qo‘shiq tabiat bilan uyg‘unlikni, insonning tabiat bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi. “*The more she singeth 'Cuckoo' / The summer draweth near*” misralari esa mavsumiy kuzatuv va ramziy hisobni ko‘rsatib, folklorida

qushlarning ovozi tabiat va inson hayoti bilan chambarchas bog‘lanadi. Qo‘shiq ingliz xalq hayotining marosim va dehqonchilik kalendari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, yozning yaqinlashishi dehqonlar va qishloq hayoti uchun muhim hodisa sifatida e‘tiborga olingan.

Ingliz bolalar folklorida ham mavsumni ifoda etuvchi iqlimiy tushunchalar o‘rin egallagan:

*‘Tis midnight, and the setting sun  
Is slowly rising in the west;  
The rapid rivers slowly run,  
The frog is on her downy nest.  
The pensive goat and sportive cow,  
Hilarious, leap from bough to bough. [13,123]*

(Qo‘shiq matnining o‘zbek tiliga erkin tarjimasini (tarjima o‘zimizniki): *Yarim tun, botayotgan quyosh esa// G‘arbda sekin ko‘tarilmoqda; // Tez oqadigan daryolar sekin oqadi, // Qurbaqa yumshoq inida o‘tiribdi. // O‘ychan echki va sho‘x sigir esa, // Quvonch bilan shoxdan shoxga sakraydi.*)

Ushbu ingliz bolalar folkloriga xos she‘riy parcha “Nonsense verse” (mantiqsiz she‘riyat) yoki “Paradoksal tasvir” janrining namunasi sanaladi. Matndagi “Teskarisiga ag‘darilgan dunyo” (*The Upside-Down World*) konsepsiyasi folklorning barcha turlarida uchrab, jamiyatdagi inqiroz yoki mifologik “xaos” davrini bildiradi. “‘Tis midnight, and the setting sun / Is slowly rising in the west” misralariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda iqlimiy va astronomik vaqt butunlay buzilgan. Yarim tunda quyoshning chiqishi esa dunyodagi muvozanatning yo‘qolganini anglatadi. Demak, bu tushunchalar ramziy ma‘no kasb etib, bu iqlimiy tasvir o‘quvchida “bu dunyoda barcha narsa noto‘g‘ri” degan hisni uyg‘otadi. Shu bilan bir qatorda “*The rapid rivers slowly run*” misrasida tezoqar daryolarning sekin oqishi – iqlimiy va fizik dinamikaning to‘xtab qolishi metaforasi bilan belgilash mumkin. Agar o‘zbek folklorida daryolar hayot baxsh etsa, bu yerda daryoning “sekinlashi” vaqtning to‘tashiga ishoradir. “*The frog is on her downy nest*” misrasida esa baqa (suv jonzoti) obrazi keltirilgan bo‘lib, uning parqu (quruqlik) uyada bo‘lishi suv va quruqlik stixiyalarining o‘rin almashganini ko‘rsatadi. Bu klimatologik holatni ko‘rsatibgina qolmay, ekotizimning buzilishi haqidagi eng sodda, ammo kuchli folklorik tasvirdir. “*The pensive goat and sportive cow... leap from bough to bough*” misrasidagi echki va sigirning shoxdan shoxga sakrashi hayvonot olamining o‘z tabiiy muhitini (landshaftini) yo‘qotganini anglatadi. Demak, absurd tushunchalar zamiridagi “mantiqsizlik” lanshafti iqlimiy o‘zgarish bo‘libgina qolmay, insoniyatning tabiat ustidan nazoratini yo‘qotganini yoki ekologik apokalipsisining ramziy ifodasidir.

Ingliz folklorida ko‘plab iqlimiy hodisalarga duch kelish mumkin. Bu haqda folklorshunos O.N.Bichkova o‘z maqolasida tabiat hodisalarini anglash va ularni tushuntirish jarayonida inson turli til vositalariga, ayniqsa metafora va frazeologizmlarga murojaat qilishi borasida so‘z yuritadi. Unga ko‘ra bu vositalar tabiat kuchlari bilan bog‘liq munosabatlarni ifodalashga yordam beradi. Masalan, namlik – suv, yomg‘ir, qor – yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlar uchun zarur bo‘lgan hayotbaxsh kuch sifatida qabul qilinadi [4,126]. Masalan: Kaliforniyada daryo va irmoqlarni oziqlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qor qoplami odatdagidan ancha kam... (In California the snowpack which is so vital for feeding rivers and streams is much smaller than average...) [14]. Bu yerda qor qoplami (snowpack) daryo va irmoqlarni “oziqlantiruvchi” hayotbaxsh namlik sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, suv vayronkor kuch sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin – u o‘z yo‘lida uchragan hamma narsani yuvib ketadi. Masalan: Kuchli yomg‘irdan keyin yuzaga kelgan sel oqimi natijasida bir nechta uylar yuvilib ketdi (Several houses were swept away by the mudslide, which followed heavy rain) [14]. Demak, yuqoridagi fikrlardan shun anglash mumkinki, ingliz folklorida iqlimiy hodisalarga xalq alohida ahamiyat qaratishgan. Uni oziqa sifatida yoki vayronkor kuch sifatida ham e‘tirof etishadi.

Xullas, folklor matnlarida iqlim hodisalari nafaqat tabiiy jarayonlarning tasviri, balki xalqning mifologik tafakkuri, estetik dunyoqarashi va mentalitetini ifodalovchi muhim badiiy-semantik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Klimatologik holat ramziy (simvolik) funksiyani bajarib, tabiat hodisalarini insoniy tuyg‘ular, ijtimoiy munosabatlar va metafizik tushunchalar bilan bog‘laydi. Iqlimiy obrazlar emotsional fon (psixologik atmosfera) yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ular lirik qahramonning ichki kechinmalarini kuchaytiradi va poetik matnning affektiv ta‘sirini oshiradi. Tabiat va inson ruhiyati

oʻrtasida parallelizm yuzaga keladi. Shu bilan bir qatorda klimatologik elementlar xronotopik kategoriya sifatida namoyon boʻlib, vaqt va makon birliklarini shakllantiradi. Fasllar almashinuvi, kunning turli pallalari va landshaft tasvirlari folklor matnining semantik strukturasi va syujet dinamikasini belgilaydi. Bundan tashqari iqlim hodisalari mifologik va arxetipik tafakkur mahsuli sifatida antropomorfizm, animizm va sakral tasavvurlar bilan uzviy bogʻlangan. Tabiat hodisalari jonlantirilib, ular bilan muloqotga kirishish folklorning qadimiy dunyoqarash asoslarini ochib beradi. Ular milliy-madaniy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir xalq folklorida iqlimiy obrazlar oʻsha hududning geografik, ekologik va tarixiy sharoitlari bilan bogʻliq holda oʻziga xos semantik yuk kasb etadi. Shu bois rus, oʻzbek va ingliz folklorida umumiy arxetiplar mavjud boʻlsa-da, ularning talqini milliy mentalitetga mos ravishda farqlanadi. Umuman olganda, folklor matnlaridagi klimatologik elementlar badiiy tafakkurning muhim komponenti boʻlib, ular orqali inson va tabiat oʻrtasidagi murakkab munosabatlar, ekologik ong va qadimiy kosmologik qarashlar badiiy-estetik shaklda ifodalanadi. Zamonaviy ekologik inqiroz sharoitida bunday tadqiqotlar insoniyatning tabiat bilan uygʻun yashash konsepsiyasini qayta anglashda muhim ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аникин В.П. Теория фольклора. Курс лекций. – М.: Наука, 1996. – 287 с.
2. Афанасьева Н.А. Миф картина мира – модель мира // Человек. Язык. Искусство (памяти профессора Н. В. Черемисиной): Материалы Международной научно-практ.конф. – М.: МГПУ, 2002. – С.179.
3. Бабенкова Е.А. Тендерная парадигма англоязычного поэтического текста: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 2002. – 19 с.
4. Бычкова О.Н. Лингвокультурологическая репрезентативность английского метеорологического дискурса. // Актуальные вопросы современной филологии и журналистики № 3(46) 2022. – С. 126.
5. Болтабоев Х, ва Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – С. 25.
6. Венгранович М.А. Фольклорный текст и мифологическое сознание // Вопросы филологии 2002. – № 2 (11). – С. 77-85.
7. Joʻrayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – В. 8.
8. Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010. – В.128.
9. Еремеев А.Ф. Архетипическая природа искусства // Культурологический альманах. Шадринск: Изд-во Шадринского пединститута, 1996. – С.124.
10. Ўзбек халқ ижоди. Гулёр. Кўшиқлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.14.
11. Читтигул. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 18.
12. Мальцев Г.И. Традиционные формулы русской необрядовой лирики: (К изучению эстетики устнопоэтического канона) // Русский фольклор. XXI. Поэтика русского фольклора. – Л., 1981. – С.19.
13. Mother Goose Rhymes / сост. К.Н. Атаровой. – М., 2003. – Р. 123.
14. BBC Weather. URL: <https://www.bbc.com/weather/features/57116938> (25.03.2016-yilda 13.32.da murojaat etildi).

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000